

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARNI OLDINI OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Choriyev Asqarali Bayramali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8000920>

Annotatsiya. Profilaktika inspektorining xotin - qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish faoliyatini tashkil etish jarayonini o'rganish.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, huquqbuzarlik zo'ravonlik, epidemiya, iqtisodiy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik

ORGANIZING THE ACTIVITY OF THE PREVENTION INSPECTOR OF PRESSURE AND VIOLENCE AGAINST WOMEN

Abstract. To study the process of organization of activities of prevention inspector against harassment and violence against women.

Key words: Prevention inspector, criminal violence, epidemic, economic violence, physical violence.

ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРА ПО ПРОФИЛАКТИКЕ ДАВЛЕНИЯ И НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН

Аннотация. Изучить процесс организации деятельности инспектора по профилактике домогательств и насилия в отношении женщин.

Ключевые слова: инспектор по профилактике, уголовное насилие, эпидемия, экономическое насилие, физическое насилие.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni, xususan aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, ichki ishlar organlari faoliyatiga ilg'or ish usullarini joriy etish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni tashkil etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyoti, xususan ichki ishlar organlari faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri, huquqbuzarliklarning oqibati bilan qarshi kurashish emas, balki ularning barvaqt profilaktikasini amalga oshirish, har bir jinoyatning adolati va haqiqatini ta'minlashdan iboratdir. Shuning uchun ham, huquqbuzarlik-larning barvaqt oldini olishga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish olish faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda hududlarda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatlarning sodir etilishi sabablari, shaxsda g'ayriijtimoiy xulq-atvor va xususiyatlarning shakllanishiga hamda turli ko'rinishdagi

huquqbuzarliklar sodir etilishiga, qonunga yoki qonun ijrosiga putur yetkazadigan, unga rioya qilishga to'sqinlik qiladigan omillar oiladagi muhit ta'sirida yuzaga keladi. Zero, har qanday huquqbuzarlikning kelib chiqishida oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, har qanday huquqbuzarlik va salbiy illatlarning tomiri oilada shakllanadi. Oila shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ma'naviy va axloqiy tarbiyalash, shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosa-batlar jarayonida o'zini tutish kabi insoniy xususiyatlarni shakl-lantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, muayyan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishigiga yo'l qo'ymaslikka qarshi qaratilgan ogohlantirish faoliyatining dastlabki bosqichi profilaktikadir.

Bizningcha, profilaktika inspektorining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olishda xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassislar bilan huquqbuzarliklarning yakka profilaktikasi deganda - ushbu turdagi huquqbuzarliklarni sodir etgan yokisodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularni hulq-atvorini, huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelgan sabab va sharoitlarni o'rganish orqali ularga ta'sir etish choralari qo'llashdan iborat bo'lgan faoliyatdeb ta'rif berish mumkin.

Profilaktika inspektorining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olishda xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorligi samarali tashkil etish uchun rivojlangan davlatlarning milliy qonunchiligini o'rganish orqali xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olishni samarali tashkil etish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi doirasida ma'muriy hududda yashovchi spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni o'z vaqtida aniqlab, ularni majburiy davolashga yuborish muhim ahamiyatga ega bo'lib, spirtli ichimlik ta'sirida kelib chiqadigan huquqbuzarliklar profilaktikasining eng samarali profilaktikasi hisoblanadi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilgandan so'ng, sud davolash bilan birga yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barvaqt profilaktikani tashkil etish kriminogen oilalar haqidagi axborotlarni o'z vaqtida olinishini va kerakli profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi deklaratsiyaning 13-moddasida davlat fuqarolarni hayoti, sog'lig'i, shaxsiy erkinligi va xavfsizligiga bo'ladigan g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qiladi, deb qat'iy belgilab qo'yilgan.

Milliy qonunchiligimizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi: «Hech kimning qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas»ligi haqidagi normaning mustahkam-langanligi shaxsning hayoti, sog'lig'i va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e'tirof etilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, qonunchi-ligimizda shaxsning huquq va erkinligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shaxsning huquq va erkinliklari huquqning turli sohalari normalari bilan himoya qilinadi, jumladan jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy

javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali ularning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

REFERENCES

1. <https://akadmvd.uz/>
2. <https://lex.uz/>
3. <http://ziyoNet.uz>
4. <http://biblioteka.com>